



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

BOTU IJODINING LINGVISTIK TADQIQI

A LINGUISTIC STUDY OF BOTO'S CREATIVE WORKS

Safarov Chorshanbi Ibodullo o‘g‘li

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

E-mail: chorshanbisafarov@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./JUDP5428](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./JUDP5428)

Annotatsiya. *Maqolada jadid adabiyoti namoyandasi Botu (Mahmud Hodiye) ijodining tilshunoslikda tadqiq etilishi atroflicha tahlil etiladi. Jumladan, Y.Saidov va M.To‘xtaboyeva tadqiqotlaridagi ilmiy qarashlar asosida shoir asarlarining til xususiyati, sinonimlardan foydalanish mahorati, o‘xshatishlarning hosil qilinishi va kontekstdagi badiiy yuki yoritiladi. Ikki tadqiqot qiyosi asosida olimlarning muammoga yondashuvidagi o‘ziga xos metodologiya va natijalar tavsiflanadi.*

Kalit so‘zlar: *til, til islohati, adabiy til, milliy til, sinonim, metafora, o‘xshatishlar, leksik tahlil, imlo, alifbo va terminologiya.*

Annotation. *The article provides a comprehensive analysis of the linguistic study of the works of Botu (Mahmud Hodiye), a prominent representative of Jadid literature. In particular, drawing on the scholarly views presented in the studies by Y. Saidov and M. To‘xtaboyeva, the linguistic features of the poet’s works, his mastery in the use of synonyms, the formation of similes, and their artistic load within context are examined. Based on a comparative analysis of the two studies, the distinctive methodological approaches and research outcomes adopted by the scholars in addressing the issue are described.*

Keywords: *language, language reform, literary language, national language, synonym, metaphor, simile, lexical analysis, orthography, alphabet, and terminology.*

O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojida XX asr 20-30-yillar alohida o‘rin tutadi. Ayni davr tilimizning sayqallanishi, adabiy-uslubiy jihatdan shakllanishi, jonli til bilan yaqinlashish uchun muhim bosqich bo‘ldi. “...Milliy til, uning asosini tashkil etuvchi yangi o‘zbek adabiy tili qanday asoslarga tayangan holda rivojlanmog‘i kerak deyilgan masalada o‘sha davrda xilma-xil qarashlar va harakatlar oldinga surilgan edi. Mana shunday g‘oyat dolzarb, ham nazariy, ham amaliy, qolaversa, madaniy-ma’naviy ahamiyatga molik ushbu murakkab masalaga o‘zbek tilining 20-30-yillar bosqichi xususiyatlari javob beradi. O‘sha davrda Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon, Elbek, Miyon Buzruk, Behbudiy, Abdulla Avloniy hamda Botu kabi adiblar o‘z fikrlarini oldinga surishgan edi” [Normamatov, 2025: 125]. Shuningdek, bu ijodkorlar o‘z qarashlarini, o‘zlari targ‘ib qilgan til islohatiga oid yangiliklarni she‘rlari va

asarlariga olib kirdi, natijada nafaqat ma'rifat va ziyo tarqatdi, tilda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarni o'z asarlari orqali xalqqa singdirib bordilar. Shu jihatdan XX asar boshida ijod qilgan har bir jadid asarlarining til xususiyatini tadqiq qilish orqali o'zbek adabiy tilining shakllanishi va sayqallanib borishi haqidagi ma'lumotlarni boyitish imkoni mavjud.

Jadid ijodkorlari orasida Botu ijodini izchil va atroflicha o'rganish nisbatan kech boshlangan bo'lsa-da, keyingi yillarda bu borada muhim ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Xususan, Y.Saidovning monografiyasi [Saidov, 2017] hamda M.To'xtaboyevaning [To'xtaboyeva, 2024] dissertatsiyasi Botu ijodini lingvistik jihatdan o'rganishda asosiy tayanch manbalar sifatida ajralib turadi.

O'zbek tilshunosligida jadid adabiyoti vakillari merosini lisoniy jihatdan o'rganish borasidagi ilk fundamental tadqiqot sifatida Yoqub Saidovning “Jadid she'riyati leksikasi” monografiyasini qayd etish mumkin. Tadqiqotchi ushbu asarida Botu (Mahmud Hodiye) ijodini jadid davri o'zbek tili taraqqiyoti va lisoniy mahoratning o'ziga xos namunasi sifatida tahlil etadi. Y.Saidov tomonidan shoir she'riyatining leksik qatlamlari tizimli ravishda tadqiq etilib, uning adabiy til shakllanishidagi o'rni bir necha muhim yo'nalishlarda ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda, avvalo, Botu she'riyatida sinonimiya va so'z tanlash mahorati masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Y.Saidov tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, shoir she'riyatining lug'at tarkibi nihoyatda boy va rang-barang bo'lib, nutq ravonligini ta'minlashda ma'nodosh so'zlardan yuksak mahorat bilan foydalanilgan. Shoir tilda o'rinli bo'lmagan takrorlardan qochish maqsadida sinonimik qatorlarni estetik did bilan qo'llaydi. Masalan, uning ijodida “shamol” (forsiy) va “yel” (turkiy) so'zlarining parallel ishlatilishi, shuningdek, “xayol – o'y – fikr”, “zamon – chog' – davr – on – dam” kabi sinonimik qatorlar nafaqat uslubiy boyligni, balki matnning lisoniy dinamikasini ham ta'minlagan. Botu qo'llagan sinonimlarning aksariyati bugungi zamonaviy o'zbek tili uchun ham tushunarli va faol ekanligi shoirning xalqchil tilga intilganidan dalolat beradi.

Monografiyada lisoniy birliklarning ideografik va uslubiy tasnifiga ham keng o'rin berilgan. Y.Saidov Botu she'riyatidagi sinonimlarni ma'no nozikliklariga ko'ra ikki guruhga ajratadi. Birinchisi – ideografik (ma'no qirrasini bilan farqlanuvchi) sinonimlar bo'lib, bunga “kulmoq” va “jilmaymoq” so'zlari orqali harakatning darajalanishi (gradatsiya) misol qilib keltiriladi. Ikkinchisi – nutqiy-uslubiy sinonimlar bo'lib, unda shoirning “ochun” kabi arxaiklashgan yoki kitobiy birliklar bilan bir qatorda, umumiste'moldagi “dunyo” kabi so'zlardan o'rinli foydalangani tahlil qilinadi.

Shuningdek, Yoqub Saidov Botu ijodidagi metaforik ko'chimlar va lisoniy obrazlilik masalasini tahlil qilar ekan, ularni an'anaviy va xususiy-mualliflik (individual) metaforalariga ajratadi. Shoir mumtoz adabiyotdagi *malak*, *parizod*, *go'zi*, *tulki*, *arslon* kabi timsollarni yangi ijtimoiy-ma'naviy mazmun bilan boyitgan bo'lsa, uning o'ziga xos “*erk chechagi*”, “*jimjitlik qo'rg'oni*”, “*toza kuch*” va “*qora kuch*” kabi birikmalari davrning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarini



lisoniy darajada aks ettirgan original topilmalardir. Xususan, “*qalin qora bulutlar*” metaforasi orqali millat boshidagi mustamlaka zulmi va jaholat obrazi mahorat bilan chizilgani qayd etiladi.

Tadqiqotchi tomonidan amalga oshirilgan qiyosiy-lisoniy tahlillar Botuning jadid ijodkorlari safidagi o'ziga xosligini ko'rsatadi. Botu o'zining zamondoshlari Fitrat, Cho'lpon va Avloniy kabi ijodkorlar bilan bir qatorda, “*ma'shuqa*” (gul), “*oshiq*” (bulbul) va “*erk-ozodlik*” (tong, nur, quyosh) tushunchalarini ifodalashda milliy lisoniy an'analarga tayangan. Ayniqsa, shoirning “*o'g'och*” (ma'rifatli kishi) va “*yangi ko'klam*” (istiqlol) kabi metaforik qo'llanishlari uning o'ziga xos badiiy mahoratini belgilaydi.

Botu ijodini tilshunoslik nuqtayi nazardan o'rganish masalasi M.To'xtaboyeva tadqiqotida keng va tizimli tarzda tolib borilgan. Ushbu ish Botu merosini nafaqat adabiy hodisa sifatida, balki XX asr boshlaridagi o'zbek tili islohoti va milliy adabiy til qurilishining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etishi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqotda Botuning imlo, alifbo va terminologiya masalalariga oid qarashlari jadidchilik harakatining umumiy til siyosati bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Muallif shoirning tilga bo'lgan munosabatini ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uyg'un holda tahlil qilib, uning tilni xalqchil va tushunarli qilish borasidagi qarashlarini lisoniy dalillar asosida asoslaydi. Dissertatsiyada Botu she'riyati lingvopoetik jihatdan tahlil qilinib, undagi til birliklarining estetik vazifalari ochib berilgan. Tadqiqotchi lingvopoetik va antropotsentrik metodlarga tayangan holda shoir she'riyatida fonetik, leksik va sintaktik vositalarning badiiy yukini aniqlaydi. Shuningdek, Botu she'riyatida fonetik takrorlar, ohangdorlik va tovush uyg'unligi shoirning individual uslubini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida talqin etiladi. Leksik qatlamda esa sinonimik qatorlardan mahorat bilan foydalanish, antonimik qarama-qarshiliklar orqali “ruhiy kontrastlar” yaratish shoirning lingvopoetik mahoratini namoyon etishi ta'kidlab o'tilgan.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, XX asr boshlari o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining yirik vakili Botu (Mahmud Hodiyev) ijodiy merosi bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan keng tadqiq etilmoqda. Tahlil qilingan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Botu nafaqat olovqalb shoir va publitsist, balki milliy adabiy til me'yorlarining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan lisoniy islohotchidir. Uning she'riyatidagi leksik boylik, sinonimiya imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish va o'ziga xos metaforik obrazlar jadid davri o'zbek tilining naqadar dinamik rivojlanganini isbotlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar va yangi nashr etilgan “Tanlangan asarlar” majmuasi shoirning qatag'on yillaridagi fojiali hayoti hamda uning Germaniyada tahsil olgan talabalar bilan g'oyaviy yaqinligini ochib berishda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, Botu merosini o'rganish o'zbek adabiy tili va madaniyati tarixini xolis baholashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Adabiyotlar:

1. Hodiyev M. (Botu). Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 248 b.
2. Normamatov S. Abdulla Avloniy she’riyati leksikasi. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 125 b.
3. Qodirov B. Botu (Mahmud Hodiyev) – shoir va jamoat arbobi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2024. – 24 b.
4. Saidov Y. Jadid she’riyati leksikasi . – Toshkent: Navro‘z, 2017. – 151 b.
5. Soatova G. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida adabiyot materiallari. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 144 b.
6. To‘xtaboyeva M. S. Botuning tilshunoslikka oid qarashlari va she’riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 134 b.
7. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Тошкент: Фан, 1993. – 224 б.